II BOB.

MAKTABDA KASBGA YO‘NALTIRISH XIZMATINI TASHKIL ETISH

2.1. MAS’UL SHAXSLAR VA ULARNING VAKOLATLAR DOIRASI
2.2. VARIATIV O‘QUV REJALARI VA TANLOV SINFLARINI TASHKIL ETISH
2.3. KASB-HUNARGA TAYYORLASH MARKAZLARI BILAN HAMKORLIK
2.4. OTA-ONALAR BILAN ISHLASHNING TIZIMLI MODELI

Mazkur bobda kasbga yo‘naltirish ishlarida kim qanday vazifani bajarishi, mas’ullar o‘rtasidagi vakolatlar qanday taqsimlanishi, variativ o‘quv rejalari va tanlov sinflaridan qanday foydalanilishi, kasb-hunarga tayyorlash markazlari bilan hamkorlik qanday yo‘lga qo‘yilishi hamda ota-onalar bilan ishlash qanday tartibda tashkil etilishi bayon etiladi.

2.1 Mas’ul shaxslar va ularning vakolatlar doirasi

Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlarining samaradorligi mas’ullar o‘rtasidagi vazifalar aniq taqsimlanganiga bog‘liq. Ushbu jarayonda direktor umumiy boshqaruv va nazoratni amalga oshiradi, direktor o‘rinbosari reja ijrosini muvofiqlashtiradi, maktab psixologi o‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va shaxsiy xususiyatlarini o‘rganadi, maktab maslahatchisi o‘quvchilar tashabbuslari, to‘garaklar, loyihalar va tashqi hamkorlik bilan bog‘liq ishlarni tashkil etadi, sinf rahbari esa o‘quvchi va ota-onalar bilan muntazam muloqotni yo‘lga qo‘yadi.

Mas’ullar faoliyati bir-birini takrorlamasligi, aksincha, o‘zaro to‘ldirishi lozim. Direktor mazkur vazifalarni maktabning yillik ish rejasi, ichki buyruq, psixologik xizmat rejasi, tarbiyaviy ishlar rejasi, to‘garaklar rejasi va hamkorlik rejasi bilan bog‘laydi.

Mas’ul shaxs	Asosiy vazifalari	Yuritiladigan hujjatlar
Direktor	kasbga yo‘naltirish ishlarini umumiy boshqaradi; ichki buyruq chiqaradi; mas’ullarni belgilaydi; hamkor tashkilotlar bilan ishlashni tashkil etadi; natijalarni pedagogik kengashda muhokama qilib boradi.	Ichki buyruq, yillik ish reja, hamkorlik kelishuvi, pedagogik kengash qarori
Direktor o‘rinbosari	reja ijrosini muvofiqlashtiradi; sinflar kesimida ishlarning bajarilishini nazorat qiladi; fan o‘qituvchilari va sinf rahbarlari faoliyatini umumlashtiradi; monitoring ma’lumotlarini tayyorlaydi.	Ijro jadvali, monitoring jadvali, choraklik ma’lumot, tahliliy axborot
Maktab psixologi	o‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, shaxsiy xususiyatlari va kasbiy moyilligini o‘rganadi; yosh xususiyatiga mos diagnostika vositalaridan foydalanadi; individual maslahatlar beradi; kasbiy tavsiyalar uchun psixologik xulosa tayyorlaydi.	So‘rovnoma, diagnostika natijalari, psixologik xulosa, maslahat qaydnomasi
Maktab maslahatchisi	o‘quvchilar tashabbuslari, to‘garaklar, ijtimoiy va ijodiy loyihalar, kasblar bilan tanishtirish tadbirlari hamda “Kelajak” markazlari va hamkor tashkilotlar bilan aloqalarni muvofiqlashtiradi	Tadbirlar rejasi, to‘garaklar va loyihalar ro‘yxati, ishtirokchilar ma’lumoti, hamkorlik ijrosi
Sinf rahbari	o‘quvchilar bilan kundalik muloqotni olib boradi; ota-onalar bilan ishlaydi; o‘quvchining qiziqishi, faolligi va rivojlanishini kuzatadi; sinf bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtiradi.	Sinf kesimidagi kuzatuv varaqasi, ota-onalar bilan suhbat qaydnomasi, sinf ma’lumoti

O‘zaro hamkorlik mexanizmi

Kasbga yo‘naltirish ishlarida mas’ullar o‘rtasidagi hamkorlik aniq tartib asosida tashkil etiladi.

Birinchidan, o‘quv yili boshida direktor buyrug‘i bilan kasbga yo‘naltirish bo‘yicha mas’ullar belgilanadi, ularning vazifalari, ijro muddatlari va hisobot shakllari tasdiqlanadi.

Ikkinchidan, har oyda direktor yoki mas’ul direktor o‘rinbosari rahbarligida kichik ishchi yig‘ilish o‘tkaziladi. Unda o‘tgan oyda bajarilgan ishlar, aniqlangan muammolar va navbatdagi oy vazifalari muhokama qilinadi.

Uchinchidan, har chorak yakunida sinflar kesimida kasbga yo‘naltirish ishlari bo‘yicha monitoring ma’lumoti tayyorlanadi. Monitoringda qamrov, diagnostika ishlari, ota-onalar bilan suhbatlar, to‘garak va loyihalardagi ishtirok, hamkor tashkilotlar bilan o‘tkazilgan tadbirlar ko‘rsatiladi.

To‘rtinchidan, yil davomida kamida ikki marta pedagogik kengashda kasbga yo‘naltirish ishlari natijalari muhokama qilinadi. Muhokamada direktor o‘rinbosari, psixolog, maktab maslahatchisi va sinf rahbarlari tomonidan umumlashtirilgan ma’lumotlar taqdim etiladi.

Beshinchidan, 7–9-sinflar bo‘yicha o‘quvchining kasbiy qiziqishi, fanlarga moyilligi, psixologik tashxis natijalari, to‘garak va loyihalardagi ishtiroki hamda ota-ona fikri asosida shaxsiy kasbiy tavsiya shakllantiriladi.

Maktab maslahatchisi va psixolog vazifalarining farqi

Kasbga yo‘naltirish ishlarida maktab maslahatchisi va psixolog vazifalarini aralashtirib yubormaslik lozim.

Maktab psixologi o‘quvchining ichki shaxsiy xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, temperament xususiyatlari, kasbiy moyilligi va psixologik holatini o‘rganadi. U kasbiy tavsiyani shakllantirish uchun psixologik xulosa beradi.

Maktab maslahatchisi esa o‘quvchilar tashabbuslari, to‘garaklar, loyihalar, kasblar bilan tanishtirish tadbirlari, “Kelajak” markazlari, texnikumlar va ish beruvchilar bilan hamkorlik aloqalarini muvofiqlashtiradi. U o‘quvchining qiziqishini amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishi va tashqi imkoniyatlar bilan bog‘lashga yordam beradi.

Ushbu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldiradi: psixolog o‘quvchining ichki imkoniyatlarini aniqlaydi, maktab maslahatchisi esa ushbu imkoniyatlarni to‘garak, loyiha, texnikumi yoki mehnat bozori imkoniyatlari bilan bog‘lashga ko‘maklashadi.

O‘quvchi bo‘yicha ma’lumotlarni yuritish

Kasbga yo‘naltirish jarayonida 7–9-sinflar bo‘yicha o‘quvchi haqidagi ma’lumotlar tartibli yuritilishi kerak. Bunda quyidagi ma’lumotlar jamlanadi:

Ma’lumot turi	Kim shakllantiradi	Qanday foydalaniladi
O‘quvchining kasbiy qiziqishi	Psixolog, sinf rahbari	Kasbiy yo‘nalish bo‘yicha dastlabki tavsiyani aniqlash
Fanlardan o‘zlashtirish natijalari	Fan o‘qituvchisi, direktor o‘rinbosari	Akademik moyillikni baholash
To‘garak va loyihalardagi ishtirok	Maktab maslahatchisi, sinf rahbari	Qiziqishning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishini aniqlash
Psixologik tashxis xulosasi	Maktab psixologi	Shaxsiy xususiyat va kasbiy moyillikni baholash
Ota-ona fikri	Sinf rahbari, psixolog	Tavsiyani oila bilan muhokama qilish
Hamkor tashkilotlar bilan tadbirlardagi ishtirok	Maktab maslahatchisi	O‘quvchining kasblar haqidagi amaliy tasavvurini boyitish

O‘quvchi haqidagi ma’lumotlar qog‘oz yoki elektron shaklda yuritilishi mumkin. Bunda shaxsga doir ma’lumotlar maxfiyligi, ulardan faqat kasbga yo‘naltirish maqsadida foydalanish va begona shaxslarga oshkor etmaslik talablari qat’iy ta’minlanadi.

Direktor ushbu paragraf doirasida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- Kasbga yo‘naltirish bo‘yicha ichki buyruq loyihasini tayyorlaydi;
- Mas’ullar tarkibi va ularning vazifalarini belgilaydi;
- Yillik ish reja, monitoring jadvali va hisobot shakllarini tasdiqlaydi;
- Psixolog, maktab maslahatchisi, sinf rahbarlari va fan o‘qituvchilari o‘rtasida axborot almashish tartibini belgilaydi;
- 7–9-sinflar bo‘yicha o‘quvchilar ma’lumotlarini yuritish tartibini joriy etadi;
- Ota-onalar bilan kasbiy tavsiyalarni muhokama qilish mexanizmini belgilaydi;
- Texnikumlar “Kelajak” markazlari va ish beruvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;
- Natijalarni pedagogik kengashda muhokama qilib boradi.

Kutilayotgan natija

Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari bo‘yicha mas’ullar faoliyati aniq taqsimlanadi. Psixologik diagnostika, fan natijalari, sinf rahbari kuzatuvi, to‘garak va loyihalardagi ishtirok hamda ota-ona fikri asosida o‘quvchilar bo‘yicha shaxsiy kasbiy tavsiyalar shakllantiriladi. Maktab ichki boshqaruvi, ota-onalar bilan hamkorlik va tashkilotlar bilan aloqa yagona tizimga keltiriladi.

TAVSIYA

Kasbga yo‘naltirish ishlarida mas’ullar sonining ko‘pligi jarayonni murakkablashtirmasligi kerak. Direktorning vazifasi — har bir mas’ulning aniq vazifasini belgilash, takrorlanishning oldini olish va barcha ma’lumotlarni bitta maqsadga, ya’ni o‘quvchining kasbiy tanloviga xizmat qildirishdir.

Maktab psixologi o‘quvchining qiziqishi va shaxsiy xususiyatlarini aniqlaydi, maktab maslahatchisi esa ushbu qiziqishlarni to‘garak, loyiha, texnikum, kasbiy ta’lim tashkiloti va mehnat bozori imkoniyatlari bilan bog‘lashga ko‘maklashadi. Direktor ushbu ikki yo‘nalishning o‘zaro muvofiq ishlashini ta’minlashi lozim.

2.2 Variativ o‘quv rejalar va tanlov sinflarini tashkil etish

Variativ o‘quv rejalari maktabda kasbga yo‘naltirish ishlarini o‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va kelgusidagi ta’lim yo‘nalishi bilan bog‘lashga xizmat qiladigan muhim tashkiliy mexanizmlardan biridir. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar 7–11-sinflardan boshlab o‘z qiziqishi va ta’lim ehtiyojiga mos yo‘nalishda chuqurlashtirilgan ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Normativ asos va maqsad

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalarini joriy etish bo‘yicha tavsiya’ 2025-yil 23-maydagi 167-son buyrug‘iga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7–11-sinflarida variativ o‘quv rejalari ixtiyoriy ravishda joriy etilishi mumkin.

Variativ o‘quv rejasining asosiy maqsadi — o‘quv jarayonini o‘quvchining manfaatlari, individual xohish-istaklari, qobiliyati va kelgusidagi ta’lim yo‘nalishini hisobga olgan holda tashkil etishdir. Bunda maktab o‘quvchilarga fanlarni chuqurroq o‘rganish, oliy ta’lim yoki kasbiy ta’lim yo‘nalishiga tayyorgarlik ko‘rish, ota-onalarning qo‘shimcha ta’lim xarajatlarini kamaytirish va o‘quvchi tanlovini maktab ichida qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini yaratadi.

Tanlov sinflari kasbga yo‘naltirishning yakuniy qaror qabul qilish bosqichi emas. Ular o‘quvchining qiziqishi va qobiliyatini chuqurroq rivojlantirish, kelgusidagi akademik yoki kasbiy yo‘nalishga tayyorlash hamda shaxsiy kasbiy tavsiyalarni aniqroq shakllantirishga xizmat qiladi.

18 yo‘nalish — to‘liq tasnif va sinflar bo‘yicha

Maktab direktori tanlov sinfi yo‘nalishini belgilashda maktabning pedagogik salohiyati, mavjud o‘qituvchilar tarkibi, o‘quvchilar qiziqishi, ota-onalar fikri, hududdagi ta’lim va mehnat bozori ehtiyojlari hamda keyingi ta’lim bosqichlari bilan uzviylikni hisobga oladi.

Bitta tanlov sinfida ta’lim jarayoni faqat bitta yo‘nalishda olib boriladi. Bir sinfda ikki yo‘nalishni birlashtirib tashkil etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

№	Yo‘nalish	№	Yo‘nalish
1	Filologiya	10	Geografiya va geologiya
2	Xorijiy tillar	11	Maktabgacha ta’lim va psixologiya
3	Moliya — iqtisod	12	Tarix va arxeologiya
4	Veb-frilanser	13	Turizm
5	Muhandislik (texnologiya)	14	Yurisprudensiya
6	Tabiiy fanlar	15	Ijtimoiy ish
7	Ijtimoiy-gumanitar	16	Yo‘l harakati va hayot xavfsizligi
8	Boshlang‘ich ta’lim	17	Sport
9	Kimyo-texnologiya	18	Yo‘l harakati va hayot xavfsizligi

Tanlov sinfini tashkil etish bosqichlari

Tanlov sinfini tashkil etish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Tanlov komissiyasini tuzish.

Maktab direktorining buyrug‘i bilan tanlov komissiyasi tuziladi. Komissiya raisi etib direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari belgilanadi. Komissiya tarkibiga maktab psixologi, tegishli sinf rahbarlari, fan metod birlashma rahbarlari va ota-onalar vakili kiritiladi. Fan o‘qituvchilari komissiya tarkibiga kiritilmaydi, bundan fan metod birlashma rahbarlari va sinf rahbarlari mustasno.

2-bosqich. O‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish.

Tanlov sinfi yo‘nalishi tegishli sinflar kesimida o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish orqali aniqlanadi. So‘rovnomani o‘tkazish shakli tanlov komissiyasi tomonidan belgilanadi. So‘rovnoma jarayonida ota-onalar farzandlari bilan birga ishtirok etishi mumkin. Jarayonning shaffofligini ta’minlash maqsadida maktab Kuzatuv kengashi a’zolari kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

3-bosqich. So‘rovnoma natijalarini umumlashtirish.

Tanlov komissiyasi so‘rovnoma natijalarini umumlashtiradi. Agar tegishli yo‘nalishda o‘qishni xohlovchi o‘quvchilar soni 35 nafardan oshsa, tegishli fan bo‘yicha sinov tashkil etiladi va o‘quvchilar sinov natijalari asosida tanlov sinfiga qabul qilinadi. Agar o‘quvchilar soni 35 nafardan oshmasa, ular tanlov sinfiga sinovsiz qabul qilinadi.

4-bosqich. Ota-onalar arizasini rasmiylashtirish.

Tanlov sinfiga qabul qilinadigan o‘quvchilarning ota-onalari direktor nomiga ariza yozadi. Ariza tanlov sinfiga qabul qilish bo‘yicha yakuniy hujjatlar tarkibiga kiritiladi.

5-bosqich. Pedagogik kengashda muhokama qilish.

Direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari va fan metod birlashma rahbarlari tomonidan tanlov sinfi yo‘nalishi, tanlov fanlari, dars soati, o‘quvchilar ro‘yxati, sinf rahbari va mazkur fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilar to‘g‘risida ma’lumot tayyorlanadi. Ushbu ma’lumot pedagogik kengashda muhokama qilinadi.

6-bosqich. Direktor buyrug‘ini chiqarish.

Pedagogik kengash qarori asosida maktab direktorining buyrug‘i chiqariladi. Buyruqda tanlov sinfi yo‘nalishi, o‘quvchilar ro‘yxati, sinf rahbari, tanlov fanlari, dars soatlari, dars beruvchi o‘qituvchilar va ijro uchun mas’ullar belgilanadi.

Tanlov sinfida o‘quv jarayonini tashkil etish

Tanlov sinfida ta’lim jarayoni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan variativ o‘quv reja asosida tashkil etiladi. Variativ o‘quv reja majburiy va tanlov fanlaridan iborat bo‘ladi.

Tanlov fanlari uchun ajratilgan soatlarda o‘quvchilarga fanlar chuqurlashtirib o‘rgatiladi, qo‘shimcha ma’lumotlar beriladi, bilimlarni mustahkamlash, mavzularni to‘liq o‘zlashtirish, ta’lim resurslaridan foydalanish, qo‘shimcha adabiyotlar, masala va testlar bilan ishlash hamda zarur hollarda oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini jalb qilgan holda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

Tanlov sinfi yo‘nalishidan kelib chiqib, direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli fan metodika birlashmasi va tanlov fani o‘qituvchilari Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy taqvim-mavzu rejalari asosida tanlov sinfining taqvim-mavzu rejasini ishlab chiqadi. Ushbu rejaga belgilangan tartibda 30 foizgacha o‘zgartirish kiritilishi mumkin va yakuniy reja maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Direktor variativ o‘quv rejalari va tanlov sinflarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- 7–11-sinflarda o‘quvchilar qiziqishi va maktab imkoniyatlarini dastlabki tahlil qiladi;
- tanlov komissiyasini tuzish bo‘yicha buyruq chiqaradi;
- so‘rovnoma o‘tkazish tartibi, muddati va shaffoflik mexanizmini belgilaydi;
- ota-onalar, sinf rahbarlari va fan metod birlashmalari bilan tushuntirish ishlarini tashkil etadi;
- so‘rovnoma natijalarini pedagogik kengash muhokamasiga kiritadi;
- tanlov sinfi yo‘nalishi, o‘quvchilar ro‘yxati, sinf rahbari, tanlov fanlari va o‘qituvchilarni tasdiqlash bo‘yicha buyruq chiqaradi;

- tanlov sinfi bo‘yicha taqvim-mavzu rejalarning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta’minlaydi;
- tanlov sinflaridagi ta’lim sifati, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi va ota-onalar fikrini monitoring qilib boradi.

Yuritiladigan hujjatlar

Hujjat nomi	Kim tayyorlaydi	Qachon rasmiylashtiriladi
Tanlov komissiyasini tuzish bo‘yicha buyruq	Direktor o‘rinbosari	O‘quv yili boshlanishidan oldin
So‘rovnoma shakli va natijalari	Tanlov komissiyasi	Tanlov sinfi yo‘nalishini aniqlash jarayonida
Ota-onalar arizalari	sinf rahbari	O‘quvchi tanlov sinfiga qabul qilinishidan oldin
Tanlov sinfi bo‘yicha ma’lumotnoma	Direktor o‘rinbosari, metod birlashma rahbarlari	Pedagogik kengashga kiritishdan oldin
Pedagogik kengash bayonnomasi	Pedagogik kengash kotibi	Masala muhokama qilinganda
Tanlov sinfini tashkil etish bo‘yicha direktor buyrug‘i	Direktor o‘rinbosari	Pedagogik kengash qaroridan so‘ng
Taqvim-mavzu reja	Direktor o‘rinbosari, metod birlashma, fan o‘qituvchilari	O‘quv jarayoni boshlanishidan oldin
Monitoring ma’lumoti	Direktor o‘rinbosari	Har chorakda

Amal qilinishi lozim bo‘lgan talablar

Variativ o‘quv reja joriy etilgan sinfda o‘quv yili davomida yo‘nalishni o‘zgartirishga, tanlov sinfini an’anaviy sinfga aylantirishga yoki o‘quvchini tanlov sinfidan an’anaviy sinfga va aksincha o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tanlov sinfining yo‘nalishi faqat joriy o‘quv yili yakunlanib, yangi o‘quv yili boshlanishi arafasida pedagogik kengash qarori asosida o‘zgartirilishi mumkin.

Agar sinfdagi o‘quvchilar, ularning ota-onalari yoki o‘qituvchilarning uchdan bir qismi variativ o‘quv reja joriy etilishiga norozi bo‘lsa, ushbu sinfda variativ o‘quv reja joriy qilinmaydi.

Tanlov fanlari, ikkinchi xorijiy til, biznes va kasb-hunar yo‘nalishlari hamda ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat umumta’lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflarida variativ o‘quv rejalar tatbiq qilinmaydi.

Kutilayotgan natija

Variativ o‘quv rejalari va tanlov sinflarini to‘g‘ri tashkil etish natijasida o‘quvchilarning individual qiziqishi, qobiliyati va kelgusidagi ta’lim yo‘nalishiga mos o‘qish imkoniyati kengayadi. Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish, ota-onalar bilan hamkorlik, pedagogik kengash qarori va ichki monitoring orqali tizimli yo‘lga qo‘yiladi.

TAVSIYA

Tanlov sinfi faqat o‘quvchilar qiziqishi borligi uchun emas, balki maktabda ushbu yo‘nalish bo‘yicha yetarli pedagogik salohiyat, o‘quv-metodik ta’minot va barqaror o‘quv jarayonini tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘lganda ochilishi kerak.

Direktor so‘rovnoma o‘tkazishdan oldin uchta masalani alohida tekshiradi: birinchidan, o‘quvchilar va ota-onalarning haqiqiy ehtiyoji; ikkinchidan, fan o‘qituvchilari va metod birlashmalarining tayyorgarligi; uchinchidan, sinfda variativ o‘quv reja joriy etilishiga nisbatan e’tirozlar mavjud yoki mavjud emasligi.

Tanlov sinfini tashkil etish bo‘yicha har bir qaror so‘rovnoma natijasi, ota-onalar arizasi, pedagogik kengash qarori va direktor buyrug‘i bilan rasmiylashtirilishi lozim.

2.3 Kasb-hunarga tayyorlash markazlari bilan hamkorlik

Kasb-hunarga tayyorlash markazlari bilan hamkorlik maktabda kasbga yo‘naltirish ishlariga amaliy mazmun beradi. Bunday hamkorlik orqali o‘quvchilar kasblar haqida faqat umumiy ma’lumot olish bilan cheklanmaydi, balki muayyan kasbning mehnat jarayoni, zarur ko‘nikmalari, foydalaniladigan jihozlari, xavfsizlik talablari va kelgusidagi bandlik imkoniyatlari bilan ham tanishadi.

Maktab direktori ushbu yo‘nalishda kasb-hunarga tayyorlash markazlari, texnikumlar, monomarkazlar, tadbirkorlik subyektlari va hunarmandlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. Mashg‘ulotlar jadvalini maktab o‘quv jarayoni bilan muvofiqlashtiradi, o‘quvchilar ishtirokini nazorat qiladi hamda natijalarni pedagogik kengashda tahlil qilib borilishini ta’minlaydi.

Hamkor tashkilotlar turlari

Maktab kasb-hunarga yo‘naltirish va tayyorlash ishlarini tashkil etishda quyidagi hamkor tashkilotlar bilan ishlashi mumkin.

Hamkor tashkilot turi	Hamkorlik mazmuni	Maktab uchun amaliy ahamiyati
“Ishga marhamat” monomarkazlari	O‘quvchilarni zamonaviy ishchi kasblar, kasbiy ko‘nikmalar va amaliy mashg‘ulotlar bilan tanishtirish	O‘quvchilar kasbni amaliy muhitda ko‘radi, kasbiy ko‘nikma haqida tasavvurga ega bo‘ladi.
Kasb-hunarga o‘qitish markazlari	Muayyan kasblar bo‘yicha o‘quv-amaliy mashg‘ulotlar, tanishtiruv darslari va qisqa kurslar	10–11-sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlashda asosiy amaliy hamkor bo‘lib xizmat qiladi.
Mahalla aholisini kasb-hunarga o‘qitish maskanlari	Hududdagi talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha mahalliy imkoniyatlar bilan tanishtirish	O‘quvchini yashash hududidagi real mehnat va kasb imkoniyatlari bilan bog‘laydi.
Kasbiy ta’lim tashkilotlari	Ta’lim yo‘nalishlari, qabul shartlari, laboratoriya va ustaxonalar bilan tanishtirish	9-sinf bitiruvchilarining keyingi ta’lim yo‘nalishini ongli tanlashiga yordam beradi.
Tadbirkorlik subyektlari va hunarmandlar	Kasb-hunar to‘garaklari, mahorat darslari, ishlab chiqarish bilan tanishtirish	O‘quvchilarga kasbni real ish joyi va amaliy faoliyat orqali tushuntirish imkonini beradi.

Hamkor tashkilotlarni tanlashda direktor hududdagi real imkoniyatlar, o‘quvchilar qiziqishi, xavfsizlik talablari, transport masalasi, mutaxassislar salohiyati va o‘quv jarayoniga ta’sirini hisobga oladi.

Biriktirish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish tartibi

Umumta’lim maktablarini kasb-hunarga tayyorlash markazlariga biriktirish hududiy ehtiyojlar va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Har yili navbatdagi o‘quv yili oldidan tegishli tashkilotlar tomonidan umumta’lim muassasalarini kasb-hunarga tayyorlash markazlariga biriktirish bo‘yicha manzilli ro‘yxat shakllantiriladi.

Maktab direktori mazkur jarayonda quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

maktabdagi 7–11-sinflar kesimida o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari bo‘yicha dastlabki ma’lumotlarni umumlashtiradi;

10–11-sinf o‘quvchilarining kasb-hunarga tayyorlash yo‘nalishlari bo‘yicha ehtiyojini aniqlaydi;

maktabdagi mavjud ustaxona, kompyuter sinfi, bo‘sh xona va boshqa moddiy-texnik imkoniyatlar haqida ma’lumot tayyorlaydi;

hududdagi kasb-hunarga tayyorlash markazlari, texnikumlar, amaliy monomarkazlar, tadbirkorlik subyektlari va hunarmandlar imkoniyatlarini o‘rganadi;

tegishli hududiy tashkilotlarga rasmiy so‘rov yoki ma’lumot kiritadi;

biriktirilgan markaz bilan o‘quv jarayoni, jadval, xavfsizlik, mas’ullar va monitoring tartibini kelishadi.

Hamkorlik shartnomasi yoki kelishuvining mazmuni

Ma’lumot manbasi	Tavsiyani shakllantirishdagi ahamiyati
Umumiy qoidalar	Hamkorlik maqsadi, tomonlarning rasmiy nomi, huquqiy asos va amal qilish muddati
Hamkorlik predmeti	O‘quvchilarni kasb-hunar bilan tanishtirish, kasb-hunarga tayyorlash, to‘garak yoki amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish
Tomonlarning majburiyatlari	Maktab — o‘quvchilar ro‘yxati, ishtirok, ota-onalar bilan ishlash va nazorat; hamkor tashkilot — o‘quv-amaliy sharoit, mutaxassis, jihoz va xavfsizlik
O‘quv jarayoni va jadval	Mashg‘ulot vaqti, joyi, davomiyligi, guruhlar tarkibi, mas’ullar va dars jadvali
Xavfsizlik va mas’uliyat	O‘quvchilarning hayoti, sog‘lig‘i, texnika xavfsizligi, sanitariya qoidalari va kuzatuv tartibi

Ma’lumot manbasi	Tavsiyani shakllantirishdagi ahamiyati
Monitoring va hisobot	Davomat, o‘zlashtirish, kasbiy ko‘nikmalar, ota-onalar fikri va choraklik ma’lumot
Moliyaviy shartlar	Hamkorlik turi bo‘yicha belgilangan tartibdagi moliyalashtirish yoki bepul foydalanish shartlari

Maktab va hamkor tashkilot o‘rtasidagi hamkorlik yozma kelishuv, shartnoma, memorandum yoki tasdiqlangan hamkorlik rejasi asosida amalga oshiriladi. Hujjatning shakli hamkorlik turiga, o‘quvchilar qamroviga va tegishli normativ hujjatlarning talablariga muvofiq belgilanadi.

Shartnoma yoki kelishuvda umumiy iboralar bilan cheklanmaslik kerak. Unda qaysi sinf o‘quvchilari qamrab olinishi, qaysi kasb yoki yo‘nalishda mashg‘ulot o‘tkazilishi, haftalik jadval, mas’ul shaxslar, xavfsizlik bo‘yicha javobgarlik va monitoring shakli aniq ko‘rsatiladi.

Hamkorlikning amaliy mexanizmlari

Hamkorlik shartnomasi yoki kelishuvi imzolangandan so‘ng ishlar quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etiladi.

1. O‘qish jadvalini muvofiqlashtirish.

Maktabning umumiy dars jadvali va markazdagi mashg‘ulotlar jadvali o‘zaro moslashtiriladi. Bunda o‘quvchilarning asosiy fanlardan dars qoldirmasligi, dam olish vaqti, yo‘lga ketadigan vaqti, xavfsizlik va ota-onalarning roziligi hisobga olinadi.

2. O‘quvchilar ro‘yxatini shakllantirish.

Kasb-hunarga tayyorlash markaziga jalb etiladigan o‘quvchilar ro‘yxati sinflar kesimida shakllantiriladi. Ro‘yxat o‘quvchining qiziqishi, ota-onaning roziligi, psixologik tavsiya, fan natijalari va maktab imkoniyatlari asosida aniqlashtiriladi.

3. Ota-onalar bilan tushuntirish ishlarini o‘tkazish.

Ota-onalarga tanlangan kasb yo‘nalishi, mashg‘ulotlar joyi, vaqti, xavfsizlik qoidalari, transport masalasi, kiyim-bosh yoki maxsus jihozlar bo‘yicha talablar tushuntiriladi. Zarur hollarda ota-onalardan yozma rozilik olinadi.

4. Transport va xavfsizlik masalasini hal qilish.

Agar markaz maktabdan uzoq hududda joylashgan bo‘lsa, o‘quvchilarni olib borish va olib kelish tartibi mahalliy hokimlik, markaz va ota-onalar bilan kelishilgan holda belgilanadi. O‘quvchilarning yo‘lda, mashg‘ulot joyida va qaytish jarayonida xavfsizligi bo‘yicha mas’ullar aniq belgilanadi.

5. Davomat va o‘zlashtirishni nazorat qilish.

O‘quvchilarning mashg‘ulotlarda ishtiroki maktab tomonidan nazorat qilinadi. Markaz mas’uli davomat, o‘zlashtirish va kasbiy ko‘nikmalar bo‘yicha maktabga ma’lumot beradi. Direktor o‘rinbosari ushbu ma’lumotlarni umumlashtirib boradi.

6. Choraklik monitoringni tashkil etish.

Har chorak yakunida maktab va hamkor tashkilot o‘rtasida o‘quvchilarning davomati, intizomi, xavfsizligi, o‘zlashtirishi va kasbiy ko‘nikmalarni egallashi yuzasidan qisqa monitoring o‘tkaziladi.

7. Natijalarni pedagogik kengashda muhokama qilish.

Yil davomida kasb-hunarga tayyorlash markazlari bilan hamkorlik natijalari pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Muhokamada qamrov, o‘quvchilar natijasi, ota-onalar fikri, muammolar va keyingi vazifalar belgilanadi.

Maktab binolaridan foydalanish orqali hamkorlikni kengaytirish

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bo‘sh turgan binolari mavjud bo‘lsa, ular belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektlari va hunarmandlar bilan hamkorlikda o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitish, kasb-hunar to‘garaklari yoki amaliy monomarkazlar tashkil etish uchun foydalanilishi mumkin.

Bunda direktor quyidagi masalalarni alohida nazorat qiladi:

- bino yoki xonaning bo‘sh turgani va o‘quv jarayoniga xalaqit bermasligini aniqlash;
- sanitariya, yong‘in xavfsizligi, texnika xavfsizligi va moddiy-texnik holatni baholash;
- hamkor tadbirkor yoki hunarmandning faoliyati o‘quvchilar yoshi, xavfsizligi va ta’lim maqsadlariga mosligini o‘rganish;
- foydalanish shartlarini huquqiy asosda rasmiylashtirish;
- mashg‘ulotlar jadvali, mas’ullar, nazorat va hisobot shakllarini belgilash;
- ota-onalar va pedagogik jamoani xabardor qilish;
- hamkorlik natijalarini monitoring qilib borish.

Maktab binosidan foydalanish masalasi faqat iqtisodiy manfaat yoki bino bo‘sh turgani asosida hal qilinmaydi. Bunda birinchi navbatda o‘quvchilarning xavfsizligi, ta’lim jarayonining uzluksizligi, hamkorlikning kasbga yo‘naltirish maqsadlariga mosligi va qonunchilik talablari hisobga olinadi.

Direktorning amaliy harakatlari

Direktor kasb-hunarga tayyorlash markazlari bilan hamkorlikni tashkil etishda quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- hududdagi kasb-hunarga tayyorlash markazlari, texnikumlar, amaliy monomarkazlar, tadbirkorlik subyektlari va hunarmandlar ro‘yxatini shakllantiradi;
- 7–11-sinflarda o‘quvchilarning qiziqishlari va kasb yo‘nalishlari bo‘yicha ehtiyojni aniqlaydi;
- tegishli hududiy tashkilotlarga rasmiy so‘rov yuboradi yoki mavjud manzilli ro‘yxat bilan ishlaydi;
- hamkor tashkilot bilan o‘quv jarayoni, jadval, xavfsizlik, transport va monitoring masalalarini kelishadi;
- ota-onalar bilan tushuntirish ishlarini tashkil etadi;
- hamkorlik shartnomasi, kelishuv, memorandum yoki ish rejasini rasmiylashtiradi;
- o‘quvchilarning mashg‘ulotlarda ishtiroki va o‘zlashtirishini nazorat qiladi;
- har chorakda monitoring ma’lumotini tayyorlaydi;
- hamkorlik natijalarini pedagogik kengashda muhokama qiladi.

Yuritiladigan hujjatlar

Hujjat nomi	Kim tayyorlaydi	Qachon rasmiylashtiriladi
Hamkor tashkilotlar ro‘yxati	Direktor o‘rinbosari, maktab maslahatchisi	O‘quv yili boshida
Rasmiy so‘rov xati	Direktor	Navbatdagi o‘quv yili rejalashtirilayotganda
Hamkorlik shartnomasi yoki memorandum	Direktor, hamkor tashkilot rahbari	Hamkorlik boshlanishidan oldin
O‘quvchilar ro‘yxati	Sinf rahbari, direktor o‘rinbosari	Mashg‘ulotlar boshlanishidan oldin
Ota-onalar roziligi yoki suhbat qaydnomasi	Sinf rahbari	O‘quvchi jalb etilishidan oldin
Mashg‘ulotlar jadvali	Maktab direktori, markaz rahbari	O‘quv jarayoni boshlanishidan oldin
Davomat va o‘zlashtirish ma’lumoti	Markaz mas’uli, direktor o‘rinbosari	Har oyda
Choraklik monitoring ma’lumoti	Direktor o‘rinbosari, maktab maslahatchisi	Har chorakda
Pedagogik kengash bayonnomasi	Pedagogik kengash kotibi	Natijalar muhokama qilinganda

Kutilayotgan natija

Kasb-hunarga tayyorlash markazlari, texnikumlar, amaliy monomarkazlar, tadbirkorlik subyektlari va hunarmandlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi natijasida o‘quvchilar kasblar haqida nazariy emas, amaliy tasavvurga ega bo‘ladi. 10–11-sinflarda kasb-hunarga tayyorlash ishlari o‘quv jarayoni bilan muvofiqlashadi, o‘quvchilar ishtiroki nazorat qilinadi, ota-onalar bilan hamkorlik kuchayadi va maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari real mehnat muhiti bilan bog‘lanadi.

TAVSIYA

Hamkorlik shartnomasi faqat rasmiy hujjat sifatida qolib ketmasligi kerak. Direktor har yarim yilda kamida bir marta hamkor tashkilot rahbarlari bilan uchrashib, o‘quvchilarning davomat, xavfsizlik, o‘zlashtirish, kasbiy ko‘nikma va ota-onalar fikri bo‘yicha natijalarni muhokama qilishi maqsadga muvofiq.

Kasb-hunarga tayyorlash markazlari bilan hamkorlikning samarasi shartnoma imzolanishi bilan emas, o‘quvchining real ko‘nikma olishi, kasb haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi va kelgusidagi ta’lim yo‘lini ongli tanlashga yaqinlashishi bilan baholanadi.

2.4 Ota-onalar bilan ishlashning tizimli modeli

Kasbga yo‘naltirish jarayonida ota-onalar maktabning muhim hamkori hisoblanadi. O‘quvchining kasbiy tanlovi faqat maktab tavsiyasi yoki ota-onaning xohishi bilan belgilanmaydi. U o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati, fanlardan erishgan natijalari, psixologik xususiyatlari, oilaviy sharoiti va keyingi ta’lim imkoniyatlarini birgalikda tahlil qilish asosida shakllanishi lozim.

Ota-onalar farzandining ta’lim olishi, tarbiyasi, kamoloti va kelgusidagi hayot yo‘lini belgilashda bevosita ishtirok etadi. Maktabning vazifasi ota-onani kasb tanlash jarayonida faqat tinglovchi yoki kuzatuvchi sifatida emas, balki asosli ma’lumotga ega hamkor sifatida jalb qilishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PQ–316-son qarorida 7-sinfdan boshlab o‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, shaxsiy xususiyatlari va temperamenti asosida kasbga qiziqishini aniqlash, o‘quvchi bo‘yicha shaxsiy kasbga yo‘naltirish tavsiyasi ishlab chiqish hamda ushbu masalani ota-onalar bilan muhokama qilish belgilangan. Shu sababli direktor ota-onalar bilan ishlash bo‘yicha aniq tartib, mas’ullar, hujjat shakllari va monitoring mexanizmini yo‘lga qo‘yishi zarur.

Ota-onalar bilan ishlashning asosiy maqsadi

Ota-onalar bilan ishlashning asosiy maqsadi - farzandning kasbiy tanlovi bo‘yicha oilaviy qarorni maktabdagi pedagogik, psixologik va amaliy kuzatuvlar bilan uyg‘unlashtirishdir.

Bunda maktab ota-onaga quyidagi masalalarda yordam beradi:

Yo‘nalish	Mazmuni
Xabardor qilish	Ota-onaga zamonaviy kasblar, texnikumlar, tanlov sinflari va mehnat bozori haqida ma’lumot beriladi.
Tushuntirish	O‘quvchining qiziqishi, qobiliyati, fan natijalari va psixologik xulosasi asosida tavsiya mazmuni tushuntiriladi.
Muhokama qilish	Ota-onaning fikri, oilaviy imkoniyat va farzand haqidagi kuzatuvlari eshitiladi.
Kelishilgan yo‘lni belgilash	O‘quvchining keyingi ta’lim yo‘nalishi, tanlov sinfi, to‘garak, texnikum yoki akademik ta’lim bo‘yicha keyingi qadamlar aniqlashtiriladi.
Monitoring	Ota-ona bilan kelishilgan tavsiyalar ijrosi va o‘quvchining rivojlanishi kuzatib boriladi.

Ota-onalar bilan ishlash shakllari

Maktabda ota-onalar bilan ishlash bir martalik yig‘ilishlar bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayon yakka tartibdagi suhbat, sinf yig‘ilishi, seminar, amaliy maslahat va Kuzatuv kengashi orqali jamoatchilik ishtirokini qamrab olgan tizim sifatida tashkil etiladi.

Yo‘nalish	Mazmuni	Davriylik	Mas’ullar
Yakka tartibdagi maslahat	O‘quvchi bo‘yicha shaxsiy kasbiy tavsiya ota-ona bilan muhokama qilinadi.	7–9-sinflarda yiliga kamida 1 marta	Sinf rahbari, psixolog, maktab maslahatchisi
Ota-onalar yig‘ilishi	Sinf kesimida kasbga yo‘naltirish ishlari, tanlov sinflari, texnikumlar va hamkorlik imkoniyatlari tushuntiriladi.	Har yarim yillikda kamida 1 marta	Sinf rahbari, direktor o‘rinbosari
Seminar yoki trening	“Farzandimning kelajak yo‘li”, “Kasb tanlashda ota-onaning roli”, “Texnikum yoki akademik ta’lim?” kabi mavzularda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etiladi.	Yiliga kamida 1–2 marta	Psixolog, maktab maslahatchisi
Kasb egalari bilan uchrashuv	Ota-onalar, mahalliy ish beruvchilar, texnikum vakillari va bitiruvchilar ishtirokida uchrashuvlar o‘tkaziladi.	Reja asosida	Maktab maslahatchisi, sinf rahbari

Yakka tartibdagi maslahatni tashkil etish

Yakka tartibdagi maslahat ota-onalar bilan ishlashning eng muhim shakllaridan biridir. Bunda o‘quvchi bo‘yicha shakllantirilgan kasbiy tavsiya ota-onaga tushuntiriladi, ota-onaning fikri eshitiladi va keyingi qadamlar kelishib olinadi.

Maslahat quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- sinf rahbari ota-onani belgilangan jadval asosida suhbatga taklif etadi;
- maktab psixologi o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari bo‘yicha umumlashtirilgan xulosani tayyorlaydi;
- fan o‘qituvchilari va direktor o‘rinbosari o‘quvchining fan natijalari va akademik moyilligi bo‘yicha ma’lumot beradi;
- maktab maslahatchisi to‘garaklar, tanlov sinflari, texnikumlar va hamkor tashkilotlar imkoniyatlari haqida ma’lumot beradi;
- ota-onaning fikri, taklifi va e’tirozlari eshitiladi;
- o‘quvchi uchun keyingi qadamlar bo‘yicha kelishilgan tavsiya shakllantiriladi;
- suhbat natijasi qisqa qaydnoma bilan rasmiylashtiriladi.
- Yakka tartibdagi maslahat davomiyligi maktabning ichki ish tartibi, ota-onaning imkoniyati va masalaning murakkabligidan kelib chiqib belgilanadi. Muhimi, suhbat rasmiyatchilik uchun emas, o‘quvchi manfaatiga mos keladigan qarorni asoslash uchun o‘tkazilishi kerak.

“Farzandimning kelajak yo‘li” loyihasi

“Farzandimning kelajak yo‘li” — maktab tomonidan tashabbus sifatida tashkil etiladigan amaliy loyiha bo‘lib, ota-onalarni kasbga yo‘naltirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qiladi. Loyiha majburiy normativ dastur emas, balki maktabning ichki ish rejasi doirasida amalga oshiriladigan metodik tashabbus sifatida tashkil etilishi mumkin.

Loyihaning asosiy maqsadi ota-onalarga farzandining kasb tanlash jarayonida o‘z xohishini majburlash emas, balki farzandning qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ongli hamkor sifatida ishtirok etish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

Loyiha 7–11-sinflar kesimida quyidagi mazmunda tashkil etilishi mumkin:

Sinf	Mavzu	Asosiy mazmun
7-sinf	Farzandimning kasbiy qiziqishlarini qanday aniqlash mumkin?	O‘quvchining qiziqishi, qobiliyati, fanlarga moyilligi va to‘garaklardagi ishtirokini kuzatish.
8-sinf	Zamonaviy kasblar va mehnat bozori qanday o‘zgarmoqda?	Yangi kasblar, texnikumlar, tanlov sinflari, raqamli ko‘nikmalar va hududdagi imkoniyatlar bilan tanishtirish.
9-sinf	Texnikum, tanlov sinfi yoki akademik ta’lim: qarorni qanday asoslash kerak?	Shaxsiy kasbiy tavsiya, ota-ona fikri, psixologik xulosa va fan natijalari asosida keyingi ta’lim yo‘lini muhokama qilish.
10-sinf	Kasbiy tayyorgarlik va keyingi ta’lim yo‘nalishi	Tanlangan yo‘nalish bo‘yicha fanlarni chuqurlashtirish, kasb-hunar markazlari, texnikumlar yoki oliy ta’limga tayyorgarlikni rejalashtirish.
11-sinf	Yakuniy tanlov va o‘qishga kirishga tayyorgarlik	O‘quvchining yakuniy tanlovi, imtihonlarga tayyorgarlik, kasbiy yoki oliy ta’lim yo‘nalishini aniqlashtirish.

Har bir mavzu bo‘yicha o‘quv yili davomida kamida bitta seminar yoki amaliy suhbat tashkil etilishi mumkin. Imkoniyat mavjud bo‘lsa, seminarlarga texnikum vakillari, ish beruvchilar, oliy ta’lim muassasalari vakillari, bitiruvchilar yoki soha mutaxassislari jalb qilinadi.

Ota-onalar bilan muloqot strategiyasi

Ota-onalar bilan ishlashda bitta umumiy yondashuv yetarli emas. Ota-onalarning xabardorlik darajasi, farzandining qiziqishiga munosabati va hamkorlikka tayyorligi turlicha bo‘ladi. Shu sababli sinf rahbari va psixolog ota-onalar bilan muloqotni ehtiyojga qarab tashkil etishi lozim.

Ota-onalar guruhi	Xususiyati	Muloqot strategiyasi
Faol va qiziquvchi ota-onalar	Farzandining kelajak yo‘li bo‘yicha muntazam savol beradi, maktab bilan hamkorlik qiladi.	Ularni seminar, uchrashuv, Kuzatuv kengashi va hamkorlik tadbirlariga jalb qilish.
Ma’lumotga ehtiyoji bor ota-onalar	Kasblar, texnikumlar yoki tanlov sinflari haqida yetarli ma’lumotga ega emas.	Qisqa, aniq va tushunarli ma’lumotnomalar, suhbatlar va taqdimotlar berish.
Faolligi past ota-onalar	Maktab tadbirlarida kam ishtirok etadi, qarorni ko‘proq maktab zimmasiga qoldiradi.	Yakka tartibdagi taklif, telefon orqali eslatma, qulay vaqtda suhbat tashkil etish.
Farzand tanloviga bosim o‘tkazuvchi ota-onalar	O‘z xohishini farzand qiziqishi va qobiliyatidan ustun qo‘yishi mumkin.	Psixolog va sinf rahbari ishtirokida o‘quvchi manfaatiga asoslangan xolis suhbat o‘tkazish.

Bunday guruhlash ota-onalarni baholash yoki ajratish uchun emas, balki ular bilan samarali muloqot yo‘lini tanlash uchun qo‘llanadi. Har qanday holatda ham maktab muloqoti hurmat, xolislik va o‘quvchi manfaatlarini ustuvor qo‘yish tamoyiliga asoslanadi.

Yakka tartibdagi kasbiy tavsiya muhokamasi

O‘quvchi uchun tayyorlanadigan shaxsiy kasbiy tavsiya ota-onaga faqat yakuniy xulosa sifatida berilmasligi kerak. U muhokama qilinadigan, tushuntiriladigan va aniqlashtiriladigan hujjatdir.

Tavsiyani muhokama qilishda quyidagi ma’lumotlar ko‘rib chiqiladi:

Ma’lumot turi	Kim taqdim etadi	Muhokamadagi vazifasi
O‘quvchining qiziqishi	O‘quvchi, sinf rahbari	O‘quvchining ichki motivatsiyasini aniqlash
Fan natijalari	Fan o‘qituvchilari, direktor o‘rinbosari	Akademik imkoniyat va fanlarga moyillikni ko‘rsatish
Psixologik xulosa	Maktab psixologi	Qobiliyat, shaxsiy xususiyat va kasbiy moyillikni izohlash

Ma’lumot turi	Kim taqdim etadi	Muhokamadagi vazifasi
To‘garak va loyihalardagi ishtirok	Maktab maslahatchi si, sinf rahbari	Qiziqishning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishini aniqlash ichki motivatsiyasini aniqlash
Ota-ona fikri	Ota-ona	Oilaviy sharoit va qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini hisobga olish
Tashqi imkoniyatlar	Maktab maslahatchisi	Texnikumlar, kasb-hunar markazlari, tanlov sinflari va hamkor tashkilotlar haqida ma’lumot berish

Yuritiladigan hujjatlar

Hujjat nomi	Kim yuritadi	Qachon rasmiylashtiriladi
Ota-onalar bilan ishlash rejasi	Direktor o‘rinbosari, sinf rahbarlari	O‘quv yili boshida
Ota-onalar yig‘ilishi bayonnomasi	Sinf rahbari	Yig‘ilish o‘tkazilganda
Yakka tartibdagi suhbat qaydnomasi	Sinf rahbari, psixolog	Kasbiy tavsiya muhokama qilinganda
Ota-ona fikri varaqasi	Sinf rahbari	Tavsiya shakllantirish jarayonida
Seminar-trening materiallari	Psixolog, maktab maslahatchisi	Seminar o‘tkazilganda
Shaxsiy kasbiy tavsiya	Psixolog, sinf rahbari, maktab maslahatchisi	7–9-sinflarda reja asosida
Monitoring ma’lumoti	Direktor o‘rinbosari	Har yarim yillikda
Pedagogik kengash bayonnomasi	Pedagogik kengash kotibi	Natijalar muhokama qilinganda

Direktor ota-onalar bilan ishlashning tizimli modelini joriy etishda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- ota-onalar bilan kasbga yo‘naltirish bo‘yicha ishlash tartibini maktab yillik rejasiga kiritadi;
- 7–9-sinflar bo‘yicha shaxsiy kasbiy tavsiyalarni ota-onalar bilan muhokama qilish jadvalini tasdiqlaydi;
- sinf rahbarlari, psixolog va maktab maslahatchisi o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- ota-onalar yig‘ilishi, seminar, yakka tartibdagi maslahat va tashqi mutaxassislar bilan uchrashuvlarni tashkil etadi;
- ota-onalar fikri va takliflarini qayd etish tartibini belgilaydi;
- kasbiy tavsiyalarni shakllantirishda ota-onalar fikri inobatga olinishini nazorat qiladi;
- ota-onalar bilan ishlash natijalarini har yarim yillikda tahlil qiladi;
- muhim natija va muammolarni pedagogik kengash muhokamasiga kiritadi.

Kutilayotgan natija

Ota-onalar bilan ishlashning tizimli modeli joriy etilishi natijasida kasbga yo‘naltirish jarayonida maktab, o‘quvchi va ota-ona o‘rtasida barqaror hamkorlik shakllanadi. Ota-onalar farzandining qiziqishi, qobiliyati va real imkoniyatlari haqida asosli ma’lumotga ega bo‘ladi. Shaxsiy kasbiy tavsiyalar ota-onalar bilan muhokama qilinadi, oilaviy qarorlar o‘quvchining manfaatlari va maktab tavsiyalari bilan uyg‘unlashadi.

TAVSIYA

Ota-onalar bilan ishlashda eng katta xatolardan biri — barcha ota-onalarga bir xil yondashishdir. Direktor sinf rahbarlari, psixolog va maktab maslahatchisi bilan birgalikda ota-onalarning ehtiyojini aniqlashi va har bir guruh bilan mos muloqot usulini tanlashi lozim.

Ota-onaning vazifasi farzand o‘rniga kasb tanlash emas, balki farzandining qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlarini tushungan holda ongli tanlov qilishiga yordam berishdir. Maktab esa ushbu jarayonda xolis ma’lumot, psixologik-pedagogik tavsiya va amaliy imkoniyatlarni taqdim etuvchi hamkor bo‘lib xizmat qiladi.

II BOB YAKUNI

DIREKTOR UCHUN TASHKILIY-BOSHQARUV HUJJATLARI

II bobning yakunlovchi qismida maktab direktori kasbga yo‘naltirish xizmatini tashkil etishda foydalanadigan asosiy tashkiliy-boshqaruv hujjatlari keltiriladi. Ushbu paket bobda bayon etilgan tashkiliy mexanizmlarni amaliyotga joriy etish, mas’ullar faoliyatini muvofiqlashtirish, tanlov sinflari va variativ o‘quv rejalarni rasmiylashtirish, kasb-hunarga tayyorlash markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda ota-onalar bilan ishlashni tizimlashtirishga xizmat qiladi.

66

II BOB BO‘YICHA UMUMIY XULOSA

Kasbga yo‘naltirish xizmatini tashkil etish maktab ichidagi mas’ullar faoliyatini, variativ o‘quv rejalari va tanlov sinflarini, kasb-hunarga tayyorlash markazlari bilan hamkorlikni hamda ota-onalar bilan ishlashni yagona boshqaruv tizimiga birlashtirishni talab qiladi.

Bu jarayonda direktorning vazifasi barcha ishlarni alohida-alohida tadbir sifatida emas, balki o‘quvchining ongli kasbiy tanloviga xizmat qiladigan uzviy tizim sifatida tashkil etishdan iborat. Maktab psixologi, sinf rahbari, maktab maslahatchisi, fan o‘qituvchilari va direktor o‘rinbosarining vazifalari aniq belgilansa, kasbga yo‘naltirish ishlari rasmiy hisobot emas, real natija beradigan amaliy jarayonga aylanadi.

Variativ o‘quv rejalari va tanlov sinflari o‘quvchining qiziqishi va qobiliyatini chuqurlashtirishga, kasb-hunarga tayyorlash markazlari bilan hamkorlik esa kasblarni amaliy muhitda tanishga xizmat qiladi. Ota-onalar bilan tizimli ishlash shaxsiy kasbiy tavsiyalarni oilaviy qarorlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Mazkur tashkiliy yondashuv direktor uchun qo‘shimcha rasmiyatchilik emas, balki maktabda kasbga yo‘naltirish ishlarini boshqarish, nazorat qilish va natijasini baholash vositasidir. Hujjatlar to‘g‘ri yuritilganda maktabda har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va keyingi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha asosli ma’lumotlar shakllanadi.